ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ	758
Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли	
MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	764
Toxirov Dilyor Davlatovich	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	768
Babadjanov Umidbek Kamildjanovich	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI	773
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	



TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
Toshkent shahar boshqarmasi
Yangiayot tuman bo'limi tezkor vakili

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarining aktiv operatsiyalari hamda ularning rentabelligini oshirish bilan bog'liq muammolar tahlil etilgan. Shuningdek, tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarish asosida daromadlilikni oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank, tijorat banklari, aktiv operatsiyalar, risk, bank tizimi, aktiv, passiv, nazorat, kredit mablag'lari, bank daromadi, bank foydasi.

Abstract. This article analyzes the active operations of commercial banks in Uzbekistan and the issues related to increasing their profitability. In addition, it presents proposals and recommendations aimed at enhancing profitability through the effective management of commercial banks' assets.

Key words: bank, commercial banks, active operations, risk, banking system, asset, liability, control, credit funds, bank income, bank profit.

Аннотация. В данной статье проанализированы активные операции коммерческих банков Узбекистана и проблемы повышения их рентабельности. Кроме того, приведены предложения и рекомендации, направленные на повышение доходности коммерческих банков за счёт эффективного управления их активами.

Ключевые слова: банк, коммерческие банки, активные операции, риск, банковская система, актив, пассив, контроль, кредитные средства, доход банка, прибыль банка.

KIRISH

Ma'lumki, tijorat banklari mamlakatning pul-kredit tizimida muhim o'rin tutuvchi asosiy ishtirokchilardan biridir. Ularning samarali faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishi hamda investitsion faollikning oshishida bevosita hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bugungi kunda O'zbekistonda bank tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish, xususan tijorat banklari aktivlarining daromadlilikini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan belgilangan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri — barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholining farovonligini oshirish, yalpi ichki mahsulotning 6 foizdan kam bo'lmagan o'sishini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish hamda inflyatsiya va fiskal taqchillikni bosqichma-bosqich kamaytirishdan iborat. Ushbu vazifalar bank tizimi, ayniqsa tijorat banklarining moliyaviy vositachilik faoliyatini kuchaytirishni va ularning aktiv operatsiyalarini kengaytirishni talab qiladi.

Hozirgi sharoitda tijorat banklari uchun aktivlarni baholash, ularni samarali boshqarish hamda aktiv operatsiyalarning rentabelligini oshirish eng muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlarini qo'llab-quvvatlovchi asosiy "lokomotiv" sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, har bir tijorat bankining asosiy maqsadi — foydani maksimallashtirish bo'lib, bunda aktivlarning likvidligi bilan ularning daromadliliigi o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarur.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim yirik tijorat banklarida yuqori likvidli aktivlarning ortiqcha to'planishi natijasida umumiy daromadlilik darajasi pasayishi mumkin. Shu sababli, banklar aktivlar tuzilmasini optimallashtirish, risklarni kamaytirish, aktivlar sifatini yaxshilash hamda diversifikatsiya darajasini oshirish orqali daromadlilikni ta'minlashga e'tibor qaratishlari lozim.



Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari aktivlari daromadlilikini oshirish ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, aktivlarni oqilona boshqarish va ularning rentabelligini takomillashtirish O'zbekiston bank tizimining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ularning faoliyatidagi eng muhim va birlamchi vazifa hisoblanadi. Mazkur barqarorlikning asosiy omillaridan biri — bank aktivlarining doimiy daromadlilik darajasiga erishish, xususan foizli daromadlarning barqarorligini ta'minlashdir. Chunki bank daromad manbalari orasida aynan aktiv operatsiyalar, ya'ni kreditlash va investitsion faoliyatlar eng asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son'li Farmonida ham ushbu yo'nalishlar alohida ta'kidlab o'tilgan. Xususan, tijorat banklarining kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini oshirish, kreditlash hajmlarining barqaror o'sishini ta'minlash, moliyaviy tavakkalchiliklarni tahlil qilishda zamonaviy texnologik yechimlarni qo'llash, shuningdek, korporativ boshqaruvni takomillashtirish kabi vazifalar bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan [2].

Demak, tijorat banklari aktivlari daromadlilikini takomillashtirish ularning moliyaviy mustahkamligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, aktivlar rentabelligini oshirish masalasi O'zbekiston bank tizimining hozirgi bosqichida eng dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

Tijorat banklari aktivlari daromadlilikini oshirish masalalarini tahlil etishdan avval "bank daromadi" tushunchasining iqtisodiy mohiyatini aniqlab olish zarur. Chunki tijorat banklari faoliyatida daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalar muhim o'rin tutadi va ularning samarali boshqarilishi bank foydasining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bank daromadlarining asosiy manbai sifatida bank o'z mablag'lari hamda jalb qilingan resurslar o'rtasida ijobiy mutanosiblikni ta'minlash orqali foyda olishga intiladi. Boshqacha aytganda, tijorat banklari aktivlaridan daromad olish jarayonida risk, likvidlilik va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni saqlash ularning barqaror faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois, aktivlar daromadlilikini takomillashtirish jarayonida ushbu omillarni kompleks tahlil etish zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank daromadi va foydasi tushunchalariga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, rus iqtisodchisi N. Sokolinskaya fikricha, tijorat banklari aktivlarini boshqarishda asosiy e'tibor ularning daromadlilik va likvidlilikni uyg'unlashtirishga qaratilishi lozim. Bu yondashuv tijorat banklari aktivlari rentabelligini oshirishda ilmiy asos sifatida alohida ahamiyatga ega [3].

Shunday qilib, tijorat banklari faoliyatida daromad keltiruvchi aktivlarni samarali boshqarish, ularning tarkibini optimallashtirish va barqaror daromadlilikni ta'minlash iqtisodiy barqarorlik hamda raqobatbardoshlikning muhim sharti bo'lib qolmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan O'zbekiston tajribasida tijorat banklari aktivlari daromadlilikini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Diana McNaughton bank daromadini "jalb qilingan resurslar hisobidan berilgan kreditlardan olingan foizlar bilan jalb qilingan resurslar bo'yicha to'langan foizlar o'rtasidagi farq" sifatida ta'riflaydi [4]. Ushbu ta'rifda bank daromadi faqat kreditlar bo'yicha olingan va to'langan foizlar o'rtasidagi farq sifatida ko'rsatilgan bo'lib, bu ko'proq foyda tushunchasiga mos keladi. Shuningdek, u boshqa bank operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni e'tibordan chetda qoldirgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida (MHXS) "Daromadlar — bu hisobot davrida aktivlarning oqib kelishi yoki o'sishi yo'li orqali, yoxud majburiyatlarning qisqarishi natijasida aksiyadorlik kapitali ishtirokchilarning badallari bilan bog'liq bo'lmagan kapitalning ko'payishi shaklida iqtisodiy nafning o'sishidir" [5] deb ta'riflanadi. O'z navbatida, "Xarajatlar — bu hisobot davrida aktivlarning oqib ketishi yoki kamayishi yo'li orqali, yoxud majburiyatlarning ko'payishi natijasida aksiyadorlik kapitali ishtirokchilarning uni taqsimlashi bilan bog'liq bo'lmagan kapitalning kamayishi shaklida iqtisodiy nafning kamayishidir" [3].

Mahalliy olimlardan U. Rozuqulov o'zining "Анализ надёжности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости" nomli nomzodlik dissertatsiyasida aktivlar sifatining yomonlashuvi ular bilan bog'liq xarajatlarning ortishi hamda aktivlardan olinadigan daromadlarning pasayish tendensiyasi orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [7].

S. Kumokning fikricha, hozirgi davrda tijorat banklari kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini kapitalning yetariligi pasaytirish hisobiga oshirish imkoniga ega emas. Chunki banklararo raqobatning kuchaygani hamda kredit resurslarining qimmatlashgani kapitalning aktivlarga nisbatan optimal darajasini ta'minlashga

1 <https://lex.uz/docs/-4811025>



to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, umumiy kapitalga to'g'ri keladigan foyda me'yorini oshirishning asosiy manbai — aktivlar qaytimi darajasini oshirish hisoblanadi [8].

Boshqa bir o'zbekistonlik iqtisodchi olim B. Berdiyarov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, banklar aktivlari va kapitali rentabelligi ko'rsatkichlarining pastligi, shuningdek, tijorat banklari tomonidan sof barqaror moliyalashtirish me'yoriy koeffitsienti bo'yicha talablarning to'liq bajarilmayotgani shunday omillar jumlasiga kiradi [9].

Ushbu fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda ko'plab iqtisodchi olimlar bank daromadlarini turli belgilarga ko'ra tasniflaydi, chunki tijorat banklarining faoliyati nihoyatda keng va xilma-xildir.

Tijorat banklari faoliyatida daromadlilikni oshirish, eng avvalo, ularning mavjud moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Banklar o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida mavjud mablag'lar asosida turli operatsiyalarni bajaradi va aynan shu operatsiyalar natijasida daromad shakllanadi. Shu sababli, tijorat banklarining daromadlarini (foydasini) ularning faoliyat turlari hamda bajarilayotgan operatsiyalar mazmunidan kelib chiqib tasniflash mumkin.

Bank faoliyati mazmuniga ko'ra, daromad manbalari aktiv va passiv operatsiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Aktiv operatsiyalar — bu bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan resurslarni foyda olish maqsadida joylashtirish jarayonlarini ifodalaydi. Passiv operatsiyalar esa asosan resurslarni shakllantirish va mablag'larni jalb etish bilan bog'liqdir. Har bir faoliyat turi o'ziga xos daromad shakllanishiga olib keladi, biroq banklarning umumiy daromadlarida aktiv operatsiyalardan olinadigan daromadlar eng katta ulushni tashkil etadi.

O'zbekiston tajribasida tijorat banklari daromadlilikini oshirishda aynan aktiv operatsiyalar samaradorligini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kreditlash, investitsion faoliyat, lizing va boshqa aktiv operatsiyalar nafaqat bank foydasining asosiy manbayi, balki moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois, tijorat banklari aktivlari daromadlilikini takomillashtirish va ularni boshqarish mexanizmlarini zamonaviy talablarga moslashtirish O'zbekiston bank tizimi rivojlanishining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklari aktivlari daromadlilikini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va foydani ko'paytirish masalalari zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan bank faoliyatining daromadlilik omillari, aktiv operatsiyalar samaradorligi hamda moliyaviy boshqaruv strategiyalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarish, ularning rentabelligini oshirish va risklarni kamaytirish bilan bog'liq yondashuvlar mohiyatan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, shakl va uslub jihatidan sezilarli farqlarga ega. Ayrim olimlar bank aktivlarini diversifikatsiyalash orqali daromadlilikni oshirishni asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatgan bo'lsa, boshqalar foiz siyosatini takomillashtirish, risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish yoki resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni muhim deb biladi.

Muallif tomonidan mavjud ilmiy tajribalar va nazariy yondashuvlar chuqur o'rganilib, ularning asosida O'zbekiston tijorat banklari faoliyati uchun xos bo'lgan sharoitlardan kelib chiqib qiyosiy tahlil o'tkazilgan. Natijada, mamlakatimiz bank tizimida aktivlar daromadlilikini oshirish, ularni samarali boshqarish hamda foyda keltiruvchi yo'nalishlarni kengaytirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shu jihatdan, tijorat banklari aktivlari daromadlilikini takomillashtirish masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, ularning chuqur o'rganilishi O'zbekiston bank tizimining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarining iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki kengayib borayotgan bir paytda, ularning aktivlari hajmi ham izchil o'sib bormoqda. Ayniqsa, daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalar umumiy aktivlar tarkibida yuqori ulushni egallamoqda. Bu holat banklar tomonidan foyda olish maqsadida o'z mablag'lari va jalb qilingan resurslar o'rtasida ijobiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Tijorat banklari faoliyatida aktivlar hajmining ortib borishi ularning rentabellik va samaradorlik ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilib borishni taqozo etadi. Chunki faqat aktivlar hajmini oshirish emas, balki ularning daromadlilikini ta'minlash va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.



Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida banklarning moliyalashtirish salohiyati tobora oshib bormoqda. Bu esa tijorat banklari uchun yangi investitsion imkoniyatlar yaratib, aktiv operatsiyalarni yanada kengaytirish va daromadlilik darajasini oshirish uchun mustahkam zamin hozirlamoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tijorat banklari aktivlari daromadlilikini takomillashtirish O'zbekiston moliya-bank tizimining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonning samarali boshqarilishi banklarning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish va ularning foyda keltiruvchi faoliyatini yanada optimallashtirish imkonini bermoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida aktivlar daromadlilikini takomillashtirish masalalarini chuqur o'rganish uchun, eng avvalo, bank tizimidagi daromadlar va xarajatlar tarkibiy tuzilmasini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini, aktivlardan foydalanish samaradorligini hamda ularning rentabellik darajasini baholash imkonini beradi.

Shu bois, tijorat banklari daromadlari manbalari va xarajatlar tuzilmasini quyidagi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish orqali aktiv operatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash mumkin (1-jadval).

1-jadval. Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari [12] (mlrd.so'm)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			
		2021	2022	2023	2024
1.	Foizli daromadlar	37067	47392	61728	86679
2.	Foizli xarajatlar	23019	30796	37566	57683
3.	Foizli marja	14048	16595	24162	28996
4.	Foizsiz daromadlar	11801	17251	33182	42054
5.	Foizsiz xarajatlar	3516	4944	11812	13273
6.	Operasion xarajatlar	8145	10998	14877	19563
7.	Foizsiz daromad (zarar)	140	1309	6494	9218
8.	Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	6354	12221	13863	18413
9.	Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	873	333	4 213	4 645
10.	Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	6961	5351	12 579	15155
11.	Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	1318	1465	2587	2775
12.	Foyda bo'yicha tuzatishlar	-	-	1,2	0,0
13.	Sof foyda (zarar)	5642	3885	9993	12380

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari daromadlarining asosiy qismini foizli daromadlar tashkil etadi. Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, tijorat banklarining jami daromadlarida foizli daromadlar ulushi 2020-yilda 75,85 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 67,34 foizgacha kamaygan. Natijada foizli daromadlar ulushi 8,51 punktga qisqargan bo'lib, ularning absolyut miqdori 86 679 milliard so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, foizsiz daromadlar hajmi esa mutanosib ravishda o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda.

Foizli daromadlar ulushining kamayib borishi ikki tomonlama holatni ifodalaydi. Bir tomondan, bu jarayon banklar tomonidan yangi turdagi xizmatlar ko'rsatish, komission va operatsion daromadlarni oshirish orqali faoliyatni diversifikatsiyalash darajasining ortganligini bildiradi. Boshqa tomondan esa, foizli daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalar hajmining qisqarishi yoki ularning samaradorligi pasayganligidan dalolat berishi mumkin.

Shu bois, tijorat banklari faoliyatida foizli daromadlarning barqaror o'sishini ta'minlash, aktiv operatsiyalarni kengaytirish hamda ularning daromadlilikini oshirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan samarali boshqaruv choralari bank aktivlarining foydalilik darajasini oshirib, O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida aktiv operatsiyalar hajmi va ularning daromadlilik darajasi ko'plab omillarga — bankning ustav kapitali miqdoriga, faoliyat yo'nalishiga, mijozlar tarkibiga, zamonaviy



texnologiyalarning qo'llanilishiga hamda xodimlar malakasiga bevosita bog'liqdir. Bank tizimi o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun, eng avvalo, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi lozim.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ularning amalga oshirayotgan operatsiyalari va erishayotgan moliyaviy natijalari bilan belgilanadi. Shu bois, daromadni shakllantirish jarayonida banklar o'z xarajatlarini optimallashtirish hamda daromadni maksimallashtirishga qaratilgan samarali boshqaruv mexanizmlaridan foydalanishlari zarur.

Banklarning asosiy daromad manbalari — berilgan kreditlar bo'yicha foizlar, valyuta bozori va qimmatli qog'ozlar operatsiyalaridan olinadigan foydalar, mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlardan tushgan komissiyalar, shuningdek, boshqa turdagi daromadlardir. Shu bilan birga, xarajatlar tarkibi to'langan foizlar, xizmat ko'rsatish uchun to'langan komissiyalar, ma'muriy xarajatlar hamda boshqa to'lovlardan iborat. Ayniqsa, hozirgi kunda tijorat banklari xarajatlarining katta qismini to'langan foizlar tashkil etadi, bu esa banklar tomonidan jalb etilgan resurslar bahosini pasaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari resurslarni oqilona boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va daromad manbalarini diversifikatsiyalash orqali o'z aktivlari daromadlilikini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Resurslar bahosining pasayishi esa, o'z navbatida, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining kamayishiga, natijada iqtisodiyot subyektlari uchun moliyaviy imkoniyatlarning kengayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari aktivlari daromadlilikini takomillashtirish masalasi O'zbekiston bank tizimi rivojlanishining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u milliy iqtisodiyotda zamonaviy, barqaror va raqobatbardosh bank muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat moliya tizimining samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni. 2024-yil 21-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020- 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.
3. Lavrushina O.I. Bankovskoe delo. — Moskva: FiS, 2005. — S. 101-102.
4. Noton D.M., Karlson D.D., Ditt D.D. i dr. Organizatsiya raboti v bankax: v 2—x tomax. Tom 2. Interpretirovanie finansovoy otchetnosti. Per. s ang. — M.: Finansi i statistika, 2002. — 240 s.
5. Moliyaviy hisobotning milliy standarti. Loyixa. Toshkent-2022.
6. https://www.imv.uz/media/budget_activity_files/%D0%9C%D2%B2%D0%9C%D0%A1_%D0%9B%D0%BE%D0%B9%D0%B8%D2%B3%D0%B0.pdf
7. Bankovskoe delo: Uchebnik / pod. red. d.e.n. prof. G.G. Korobovoy. — M.: Ekonomist', 2004. — 751 s.190.
8. Rozukulov U.U. Analiz nadejnosti kommercheskix bankov i puti ukrepleniya ix ustoychivosti. Avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. — Tashkent: BFA, 2002. — 21s.
9. Kumok S.I. Analiz deyatelnosti kommercheskix bankov. — M. : Veche, 1996. — S. 53.
10. Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidiligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. diss. avtoref. — Toshkent, 2020. — B. 29.
11. The effect of bank management on liquidity // Academy of Banking Studies Journal. Vol. 1, Issue 4, May 2022. Scopus, ISSN: 1939-2230.
12. Sinki Dj. Finansoviy menedjment v kommercheskom banke i v industrii finansovix uslug. Per. s angl. — M.: Alpina Pablisner, 2017. — S.338.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti.2023-2024 yillar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>